Akademiyada navbatdagi dissertatsiya işi himoyasi bölib ötdi

Özbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qiliş akademiyasi huzuridagi DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 raqamli ilmiy darajalar beruvçi Ilmiy kengaşning 2026 yil 12 noyabrdagi majlisida **Musayev Ğayrat Farxadoviçning** "12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi" ixtisosligi böyiça yuridik fanlar böyiça falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini oliş uçun **"Internet tarmoğining yashirin segmenti (Darknet)dan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qiliş metodikasini takomillaştiriş"** mavzusidagi dissertatsiya işi himoyasi ötkazildi.

Tadqiqotning maqsadi Internet tarmoğining yashirin segmenti (Darknet)dan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni tergov qiliş metodikasini takomillaştirişga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni işlab çiqişdan iborat.

Tadqiqotning obyekti Internet tarmoğining yashirin segmenti (Darknet)dan foydalanib sodir etilgan jinoyatlarni tergov qiliş metodikasini takomillaştiriş jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini Darknet tarmoğidagi jinoyatlarni tergov qiliş metodikasi va tergov harakatlarini ötkaziş taktikasiga oid munosabatlarni tartibga soluvçi normativ-huquqiy hujjatlar, uşbu toifadagi jinoyatlarga qarşi kuraşişning zamonaviy tendensiyalari, ixtisoslaştirilgan texnik vositalardan foydalanish amaliyoti, şuningdek raqamli kriminalistika va yuridik fanda şakllangan konseptual yondaşuvlar hamda ilmiy-nazariy qaraşlar taşkil etadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutini taşkil etish Internet tarmoğining yashirin segmentida sodir etiladigan jinoyatlarni aniqlash, raqamli dalillarni töplash va ularni protsessual rasmiylaştirişning ilmiy-metodologik asoslarini takomillaştirişga xizmat qilishi asoslangan;

davlat sirlari bilan boğliq bölmagan ma'lumotlar, fotosuratlar, video- va audioyozuvlar, elektron hamyonlar, kriptoaktivlar manzillari, IP-manzillar, internet-manzillar (domenlar), ijtimoiy tarmoqlardagi hisob qaydlari (akkauntlar) hamda ular aniqlangan joy va vaqt töğrisidagi ma'lumotlar, şuningdek raqamli dalillarning boshqa muhim belgilarini qamrab oluvçi "Raqamli dalillar yagona reestri" idoralararo avtomatlaştirilgan tizimi taşkil etilishi huquqni muhofaza qiluvçi organlardan kelib tuşadigan mazkur toifadagi

jinoyat ishlari böyiça materiallarni töplash, hisobga oliş, saqlash va tadqiq etishga, jinoyatlarni oçişga, tergov samaradorligini oşirişga hamda uyuşgan jinoiy guruhlarni tezkor aniqlashga xizmat qilishi asoslab berilgan;

olib qöyiş va körikdan ötkaziş tergov harakatlarini ötkazişda maxsus bilimga ega şaxs (mutaxassis) iştirokisiz aniqlangan hamda qayd etilgan elektron ma'lumotlar maqbul bölmagan dalillar deb topilishi lozimligi hamda uşbu qoidani jinoyat-protsessual qonunçilikda mustahkamlaş zarurligi ilmiy asoslab berilgan;

iş uçun ahamiyatga molik holatlar töğrisidagi axborotni öz içiga olgan elektron ma'lumotlar, şu jumladan elektron şakldagi fayllar, audio- va videoyozuvlar, Internet jahon axborot tarmoğida saqlanayotgan xabarlar, şuningdek boshqa elektron raqamli ma'lumotlar mustaqil raqamli dalillar hisoblanishi hamda uşbu qoidani Özbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunçiligida mustahkamlaş zarurligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot institutida raqamli dalillar böyiça sud ekspertizasini ötkaziş tartibi töğrisidagi nizom loyihasi işlab çiqilgan bölib, unda ekspertiza tayinlaş va ötkaziş, tadqiqot obyektlarini taqdim etiş, ekspertiza ötkaziş muddatlarini uzaytirish, ekspert xulosasini rasmiylaştiriş hamda tadqiq etilgan obyektlarni qaytarish tartibi töliq qamrab olingan;

«Elektron (raqamli) dalillar yagona reestri» töğrisidagi nizomni tasdiqlashga qaratilgan idoralararo qöşma qaror loyihasi işlab çiqilgan;

kiberjinoyatçilikka, şu jumladan Darknet tarmoğidan foydalanib sodir etiladigan jinoyatlarga qarşi kuraşiş sohasi uçun kadrlar tayyorlaş maqsadida magistraturaning «Kiberxavfsizlikni huquqiy ta'minlaş» yönalishi uçun maxsus öquv kursi (moduli) işlab çiqilgan va öquv jarayoniga joriy etilgan;

Darknet tarmoğidan olinadigan katta hajmdagi ma'lumotlarni (Big Data) sud-ekspertiza tadqiqotidan ötkaziş va tahlil qiliş metodikasi işlab çiqilgan;

«Kriptoaktivlar aylanmasi sohasidagi jinoyatlarni tergov qilişning öziga xos xususiyatlari» mavzusida öquv-uslubiy qöllanma tayyorlangan hamda ta'lim tizimi va ilmiy tadqiqot faoliyatiga joriy etilgan.